International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 1)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

O‘SMIRLAR IQTIDORI SHAKLLANISHIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING TA’SIRI



Soyimnazarov Navro‘zbek Baxtiyor o‘g‘li

O‘zMu Ijtimoiy fanlar fakulteti, Psixologiya yo‘nalishi 1-kurs magistr talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda emotsional intellekt o‘smirlarning o‘z hissiyotlarini tushunish, boshqarish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish, ularning iqtidori va qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘smirlar iqtidori shakllanishida emotsional intellektning ahamiyati juda katta. Maqolada o‘smirlar iqtidori shakllanishida emotsional intellekt komponentlarining ta’siri haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: O‘quv faoliyati, o‘z-o‘zini boshqarish, individual psixologiya, ontogenez, ma’naviy rivojlanishi, emotsional barqarorlik, psixometrik faktorlar.

Kirish. Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro‘yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo‘lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish zarurati mavjud.

Yoshlarni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ilm-fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan rag‘batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, jahon miqyosida Vatanimiz dovrug‘ini keng taratgan ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 30.09.2024-yildagi PQ-346-sonli qarorida ham me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

O‘smirlik – bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi. O‘smirlik davrida organizmda jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Gormonal o‘zgarishlar, miyaning rivojlanishi va jismoniy o‘sish o‘smirlarning qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Miyaning prefrontal korteksi, masalan, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilishda muhimdir. O‘smirlik davrida ular o‘z his-tuyg‘ularini va fikrlarini anglashni o‘rganadilar. Bu davrda o‘z-o‘zini anglash, o‘z qobiliyatlarini baholash va o‘ziga ishonchni rivojlantirish juda muhimdir. O‘smirlar

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

o‘zlariga qiziqishlar va maqsadlar belgilashadi, bu esa ularning iqtidorini shakllantiradi. O‘smirlar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni o‘rganishlari va boshqalar bilan munosabatlarni rivojlantirishlari kerak. Emotsional intellekt o‘smirlarning ijtimoiy qobiliyatlarini va stressni boshqarish qobiliyatlarini oshiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘smirlarning iqtidori shakllanishida emotsional intellektning (EI) o‘rni juda muhim. Emotsional intellekt- o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va ijtimoiy vaziyatlarda moslashuvchanlikni ta’minlash qobiliyatidir. O‘smirlar uchun bu qobiliyatlar muvaffaqiyatli va sog‘lom rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Iqtidor - qobiliyatlar rivojlanishining keyingi darajasi xisoblanadi. Iqtidor shaxsga u yoki bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish imkonini beruvchi qobiliyatlarning o‘ziga xos muvofiqligiga aytiladi. Iqtidorga faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish emas, balki faqatgina muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatining mavjudligiga bog‘liq (A.G.Maklakov).

Psixologiya fanida iqtidorlilik, iqtidor va qobiliyat tushunchalari xorij olimlaridan V.Shtern, G.I.Rossolimo, V.M.Ekzemplyarskiy, Bine-Simon, L.Termei, E.I.Sheblanova, I.Averina, E.N.Zadorina, K.Xeller, K.Perlet, V.Siervalod va rus psixologlaridan S.L.Rubinshteyn, M.Y.Basov, A.F.Lazurski, V.S.Yurkevich, B.G.Ananev va boshqalarning ilmiy izlanishlari, o‘zbek psixologlaridan M.G.Davletshin, E.G‘oziyev, B.Qodirov, Sh.T.Xalilova, Z.T.Nishonova va boshqalarning muammo doirasida olib borgan ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Umumiy iqtidor shaxs katta muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin bo‘lgan faoliyatlar sohasi bilan aniqlanuvchi umumiy qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi hisoblanadi. Umumiy iqtidor maxsus qobiliyatlar rivojlanishining asosi bo‘lib xizmat qilgani bilan ulardan mustaqildir.

V.A.Tokareva tadqiqotlarida o‘quv faoliyatida qiyinchiliklarni bartaraf etish o‘quv yurti o‘quvchilaridan faqatgina intellektual faollikni emas, balki ma’naviy xatti-harakatlarni ham talab etishini ko‘rsatib beradi. Har qanday faoliyatda uning bevosita natijalari bilan bir qatorda shaxsning o‘z vazifalariga munosabati, bajarilayotgan faoliyatning o‘ziga, faoliyat olib borganda o‘quvchi o‘zaro aloqa qiladigan insonlarga munosabatni ifoda etuvchi ma’naviylik natijalariga kam erishiladi.

E.G‘.G‘oziyev tadqiqotlarida o‘quvchilar o‘quv faoliyatini o‘z-o‘zini boshqarishning mustahkamlilik darajasi uning ma’naviy g‘oyalari, anglab yetilgan sabablari dunyoqarashi shaxsiy fikri, o‘z faoliyatlarini tashkil eta olishlari bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Bundan tashqari o‘quvchilar va talabalarda o‘quv faoliyatini mustaqil boshqarish umumlashgan usullarining yuzaga kelishi va ularni anglash faoliyatining individual uslubining rivojlanishini ta’minlaydi.

Professor Sh.T.Xalilovaning tadqiqotlarida o‘smir fikrlashini motivatsion - emotsional boshqarishni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘z harakatlarini natijalariga o‘zaro aloqalar sharoitlarini o‘zgarishlar xususiyatidan qat’iy nazar, nizoning kuchayishi yoki pasayishiga, ichki javobgarligining ustun bo‘lish (nazoratning ichki lokusi) sabablilik darajasi oshishiga, tafakkur qilish sabablari

ustunligiga, bir masaladan ikkinchi masalaga o‘tishda muammolarni xal qilishning samaraliligini oshirishga intilish kuzatilishi ko‘rsatib beriladi. Bu xulosalar motivatsion emotsional boshqarishning individual psixologiyasi masalaga o‘ziga xos munosabatni belgilash haqidagi g‘oyani tasdiqlaydi va bu tadqiqotchilik “programmatik”, “passiv” bo‘lishi mumkin.

Professor Sh.T.Xalilova tadqiqotlari ijodiy shaxs rivojlanishining ichki manbalarini hamda ijodiy va ma’naviy rivojlanishi uchun ahamiyatli chuqur emotsional tuzilmalarni aniqlaydi.

M.T.Isakova tadqiqotlarida erta yoshlikda ma’naviy tasavvurlari shakllanishni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, ularga ijtimoiy omillar va milliy an’analarni ta’sir ko‘rsatishga e’tibor qaratiladi. Muallifning dars jarayonida va o‘quvchilar kommunikativ faoliyati tizimiga kiritiladi. Bu tadbirlar o‘quvchilar xulqini yoshlik paytida o‘zgartirishga yordam beruvchi ijtimoiy omil xususiyatiga ega bo‘ldi. Milliy odatlar va an’analarning mazmunini tushunib olish, maqsadga muvofiq olib borilgan ma’naviy targ‘ibot tadbirlari mos ravishda shaxsning ma’naviyat tasavvurlarini va moslashish xislatlarini va tizimini o‘zgartiradi degan holda muhim xulosa hisoblanadi. Mavjud ko‘zda tutilgan ma’naviy tasavvurlari o‘quvchilarning bu tasavvurlarga binoan o‘z xulqida harakat qilishga tayyorligi omili sifatida ishtirok etadi.

F.S.Tajiboyevaning yuqori sinf o‘quvchilarining etnopsixologik xususiyatlari shakllanishiga ijtimoiylashishi turlari ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan dissertatsion tadqiqotlari katta qiziqish uyg‘otadi. Tadqiqot ishida ijtimoiylashtirishning o‘ziga xosliklari, bosqichlari, institutlari va vositalari ularning shaxs etnopsixologik xususiyatlari shakllanishini ta’siri nuqtai nazaridan ta’riflab berilgan. Ontogenezning har bir yosh bosqichi va unga mos har bir ijtimoiylashish bosqichi bir qator institutlar, etnik guruhlar, sinflar, oila maktab mikro muhiti, ommaviy axborot vositalarining qarama-qarshi va muntazam bog‘liqligi bilan ifodalanadi.

G.A.Bogdalovaning tadqiqotlarining maqsadi emotsional barqarorligini tuzilishi va mazmunini aniqlash shu asosda uni o‘smirlik yoshida shakllantirish sharoitlari va yo‘llarini aniqlashdan iborat bo‘ldi. G.A.Bogdalova erta o‘smirlik yoshida emotsional barqarorligini shakllantirish jarayoni ko‘p bosqichli xususiyatga egaligini isbotlab berdi. Jumladan, hayajonlarini ongida mos ravishda aks ettirish ularni mavjud tasavvurlari bilan moslashtirish va ularni keyinchalik indivudal xulq darajasida qabul qilish va boshqalar. Ushbu tadqiqotlardan olingan natijalar o‘smirning ijtimoiy yetilish ulg‘ayish jarayoni bir tomondan ko‘p bosqichli xususiyatga ega ekanligini ikkinchi tomondan hayajonlari, xulqini anglash va takomillashtirish orqali amalga oshirilishini ko‘rsatib beradi.

Ma’lumki, iqtidorli o‘quvchilar va iqtidorlilik muammosi xorij psixologiyasida o‘rganilayotgan dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shu bois xorij olimlari tomonidan iqtidorlilikning turli jihatlari o‘ziga xos tarzda bayon qilingan.

Natijalar va muhokamalar. 1949-yilda Janubiy Kaliforniya Universiteti qoshida tashkil qilingan shaxsni o‘rganish instituti talant va iqtidor muammosini

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

tadqiq qilishni boshlab yubordi. Yosh olimlar guruh Dj.Gilford, P.Terrens. F.Barron, K.Teylor va boshqalar qator yangi tadqiqot proektlarini boshlab yubordi va fanda yangi konsepsiyalarni yaratdilar. Ushbu olimlar o‘zlarining dastlabki tadqiqotlarida asosan ijodkor shaxslarni kuzatish, ular bilan suhbatlashish, dam olish orqali ular haqida ma’lumot yig‘ganlar (F.Barron, 1965). Tadqiqot davomida ilmiy stereotiplar, muhokamalarni yengib o‘tishga harakat qildilar. Iqtidorlikni “epimtoid tipning nasliy degeneratsiyasi simptomi” sifatida qarovchi tasavvurni yengib o‘tish eng muhim vazifa edi (Ch.Lombrozo, 1891). Bunga XX asrning boshlarida 30 yil vaqt sarf bo‘ldi.

Stenford-Bine shklasi baholari bo‘lmish originallik, notiqlik, maqsadga intiluvchanlik, masalalarga sodiqlik, ijodiy tafakkur senzitivlik bilan mos kelmaydigan, korrelatsion faktorlarni tushuntirib beruvchi iqtidorlik modelini yaratish zarur edi. Tadqiqotchilar oldida turgan vazifalardan biri asosiy psixometrik faktorlarni inkor etish yoki uning psixik tabiatini tushuntirish edi (G.Ayzenk, E.Torndayk, L.Terstoun, Dj.Tilford, Xoupfner). 50 -illarning oxiri 60-yillarning boshlarida psixologik amaliy topshiriqlar va maktab rahbariyatining bosimi ostida qoldi, ular iqtidorli o‘smirlarning imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishlari uchun zarur bo‘lgan sharoit va dasturlarni yaratishni talab etdilar. Bu esa o‘z navbatida katta mas’uliyatni talab etadi. 70-yillarning boshlariga kelib individual farqlarni o‘rganuvchi bo‘lim amaliy fanga aylandi. Tadqiqotlar ta’lim soxasida olib borila boshlandi. Ijtimoiy tadqiqotlarga ko‘ra, iqtidorli shaxslar aytarli darajada bo‘lib chiqdi (20% ni).

P.Torrens ma’lumotlariga ko‘ra maktab o‘quvchilaring 30% iqtidorli va yuqori iqtidorli o‘smirlar tashkil qiladi. 70 yillarning oxiri 80 yillarning boshlariga kelib psixologiyada yangi soha - talant psixologiyasi vujudga keldi (T.Nyulend. X.Passov. D.Denzulli. Tannenbaum, Volvill, Djenes va Robinson va boshqalar).

Dj.Gilford ishlarining ko‘rsatishicha, ko‘pgina iqtidorli va talantli o‘smirlar maktab oxiriga kelib o‘zlarining iqtidorini kattalarda yashirishga majbur bo‘lganlaridan qattiq depressiyani his qiladilar. S.Maylz, S.Ladjoul va ishora tadqiqotlarining ko‘rsatishicha, iqtidorli o‘smirlar orasidagi o‘zini-o‘zi o‘ldirish tengdoshlarinikiga qaraganida 2,5 barobar ko‘p uchraydi.

80-yillarning boshlariga kelib dunyoning 7 mamlakatida iqtidorli o‘smirlarni asosiy xususiyatlarini o‘rganish va kelajakdagi xavfni oldini olish uchun xalqaro proyekt amalga oshirildi. AQShda iqtidorli o‘smirlarni liderlikka o‘rgatuvchi maxsus kurslar tashkil qilindi (D.Feldxoyusen, V.Richardson, D.Siks va boshqalar). Iqtidorli o‘smirlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda.

AQSh, Kanada va qator Yevropa mamlakatlarida o‘quvchilarning individual kognitiv xususiyatlarini inobatga oluvchi maxsus maktablar tashkil qilindi. Bu borada hozirgi kunda ham qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa. O‘smirlarning iqtidori shakllanishi ko‘p jihatdan ular o‘z hissiyotlarini qanday anglashlari, boshqarishlari, muloqotda qanday ishlashlari va yangi bilimlarni qanday o‘zlashtirishlariga bog‘liq. Bu davrda emotsional intellektni rivojlantirish o‘smirlarning muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib shakllanishlariga va ijtimoiy hayotda

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

muvaffaqiyatlarga erishishlariga yordam beradi. Shuning uchun ham emotsional intellektni rivojlantirish, o‘smirlarning iqtidori va umumiy rivojlanishining asosiy omili sifatida e’tiborga olinishi kerak.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 30.09.2024-yildagi PQ-346-sonli qarori
2. E.G‘. G‘oziyev. Umumiy psixologiya. – T.: “Universitet”,2002
3. N.B.Soyimnazarov. “Emotsional intellekt rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”.- Monografiya 2023-y
4. Burxonovna S. M. DIGITAL COMMUNICATIONS IN PEGAGOGIG EDUCATION //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 827-829.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024